

1) Mis (II) sulfat eritmasi inert elektrodlar bilan elektroliz qilinganda katodda qanday moddalar ajralishi mumkin?

- A) Cu, O<sub>2</sub> B) Cu, H<sub>2</sub>  
C) O<sub>2</sub>, H<sub>2</sub> D) faqat H<sub>2</sub>

2) Oltin (III) xlorid eritmasi inert elektrodlar bilan elektroliz qilinganda katodda qanday moddalar ajralishi mumkin?

- A) Au, O<sub>2</sub> B) Au, H<sub>2</sub> C) O<sub>2</sub>, H<sub>2</sub> D) faqat H<sub>2</sub>

3) Temir(II)-sulfatning suvdagi eritmasi elektroliz qilinganda elektrodalarda qanday moddalar ajralib chiqadi?

- A) Fe, O<sub>2</sub> B) H<sub>2</sub>, O<sub>2</sub>  
C) Fe, H<sub>2</sub>, O<sub>2</sub> D) H<sub>2</sub>, S

4) Na<sub>2</sub> SO<sub>4</sub> eritmasi elektroliz qilinganda, elektrodalarda ajralib chiqqan moddalarni ko'rsating.

- A) Na va SO<sub>2</sub> B) H<sub>2</sub> va SO<sub>2</sub>  
C) Na va O<sub>2</sub> D) H<sub>2</sub> va O<sub>2</sub>

5) Qaysi moddalarning suvli eritmalari inert elektrodlar bilan elektroliz qilinganda, bir xil moddalar hosil bo'ladi?

- 1) natriy gidroksid 2) kaliy xlorid  
3) xlorid kislota 4) sulfat kislota

5) natriy nitrat

- A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 5  
C) 1, 5 D) 1, 4, 5

6) Kaliy nitrat eritmasidan 4825 sekund davomida 5 A tok o'tkazilganda katodda qancha (g) vodorod ajralib chiqadi?

- A) 1,2 B) 2,4 C) 1 D) 0,25

7) Natriy nitrat eritmasidan 2,68 soat davomida 2 A tok o'tkazilganda anodda qancha (n.sh.l) gaz ajralib chiqadi?

- A) 2,24 B) 5,6 C) 1,12 D) 4,48

8) Noma'lum modda suyuqlanmasi elektroliz qilinganda anodda vodorod ajraldi. Noma'lum modda tarkibidagi elektron, proton va neytronlar yig'indisini aniqlang.

- A) 64 B) 62 C) 63 D) 61

9) 23,4% li 500 g natiy xlorid eritmasini 48250 sekund davomida 2 A tok kuchi bilan elektroliz qilinganda anodda ajralgan xlor hajmini aniqlang.

- A) 71 B) 35,5  
C) 11,2 D) 22,4

10) 300 gr 7,8 % natriy xlorid eritmasini 48250 sekund davomida 2 A tok kuchi bilan elektroliz qilindi. Anodda (inert elektrodda) ajralgan moddalar massasini aniklang.

- A) 19 B) 35, C) 4,48 D) 14,2

11) 23,4% li 500 g natiy xlorid eritmasini 48250 sekund davomida 2 A tok kuchi bilan elektroliz qilinganda anodda ajralgan gaz (lar) hajmini aniqlang.

- A) 71 B) 35,5  
C) 11,2 D) 22,4

12) 4825 sekunddavomida 4 A tok kuchi bilan 500 ml 0,2 M li kumush nitrat eritmasi elektroliz qilinganda, katodda (inert elektrodda) ajralgan kumush massasini(gr) xisoblang.

- A) 1,6 B) 10,8 C) 0,8 D) 21,6



13) 200 g 40% li  $\text{CuSO}_4$  eritmasi orqali elektr toki o'tkazilganda, anod va katodda hosil bo'lgan gazlarning mol nisbati 3:1 bo'lsa, eritma orqali necha F tok o'tkazilgan?

A) 1,2 B) 1,6 C) 0,6 D) 0,8

14) Natriy va kaliy xloridlardan iborat aralashmadagi xlor ionini to'la cho'ktirish uchun 68 g kumush nitrat sarflandi.

Boshlang'ich aralashma suvda eritilib elektroliz qilinsa ... l (n.sh.) xlor ajraladi.

A) 4,48 B) 11,2 C) 5,6 D) 13,44

15) 800 g 5% li mis(II) silfat eritmasining massasi 23,6 g ga kamayguncha elektroliz qilindi. Inert elektrodalarda ajralgan moddalar massasini aniqlang.

- 1) katodda 16 g mis
- 2) katodda 0,4 g vodorod
- 3) katodda 6,4 g mis
- 4) anodda 4 g kislorod
- 5) anodda 3,6 g kislorod
- 6) anodda 7,2 g kislorod

A) 1,2,6 B) 1,4 C) 3,6 D) 1,4,5

16) Tarkibida 0,1 mol natriy xlorid va 0,1 mol simob (II) xlorid bo'lgan eritma orqali 2000 sekund davomida 19,3 A tok o'tkazilgan. Anodda ajralib chiqqan modda(lar) massasini (g) aniqlang.

A) 14,2 B) 21,3 C) 11,45 D) 10,65

17) Tarkibida 0,2 mol aluminiy xlorid va 0,1 mol zux xlorid bo'lgan eritma orqali 1000 sekund davomida 19,3 A tok o'tkazilgan.

Anodda ajralib chiqqan modda(lar) massasini (g) aniqlang.

A) 28,4 B) 21,3 C) 30 D) 7,1

18) 100 g 20,6% li  $\text{NaBr}$  eritmasi elektroliz qilindi. Elektroliz jarayonida 0,6 mol suv sarflangan bo'lsa, eritmada necha faradey tok o'tgan?

A) 1 B) 1,1 C) 1,2 D) 1,3

19) 100 g 8% li  $\text{CuSO}_4$  eritmasi 1,2F tok bilan elektroliz qilindi. Elektroliz jarayonida sarflangan suvning massasini (g) aniqlang.

A) 9 B) 9,9 C) 10,8 D) 7,2

20) Birinchi elektrolizerda 2 mol, ikkinchisida 4 mol natriy xlorid bo'lgan eritmalar orqali 4 faradey tok o'tganda anodlarda (inertellektrod) ajralib chiqqan moddalar massasini xisoblang.

A) 142,142 B) 71,142

C) 87,142 D) 71,71

21) Birinchi elektrolizyorda 1 mol ikkinchi elektrolizyorda 2 mol mis(II) sulfat bo'lgan erimalar orqali 4 faradey tok o'tganda katodlarda hosil bo'lgan moddalar massalarini g aniqlang.

A) 66; 128 B) 128; 128

C) 64; 64 D) 64; 128

22) Doimiy tok manbaiga ketma-ket ulangan  $\text{AgNO}_3$ ,  $\text{CuSO}_4$  va  $\text{AuCl}_3$  eritmalar orqali 10000 sekund davomida 9,65 A tok o'tkazildi. Katodlarda hosil bo'lgan metallarning massalarini (g) mos ravishda aniqlang.

A) 216; 32; 197/3 B) 10,8; 6,4; 19,7

C) 108; 32; 197/3 D) 216; 64; 197

23) 300 ml 0,1 molyarli rux nitrat va 200 ml 0,2 M kumush nitrat eritmasi aralashmasi 4 A



tok kuch bilan 965 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz tugangandan keyin eritmadagi tuzning massani toping.

A) 3,78 B) 18,9 C) 5,67 D) 1,89

24) 400 ml 0,2 M li mis (II) nitrat va 200 ml 0,2 M  $\text{AgNO}_3$  eritmalarining aralashmasi 5 A tok kuchi bilan 3860 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz tugagandan keyin eritmadagi modda massasini g da toping.

A) 2,52 B) 6,3  
C) 18,9 D) 12,6

25) 100 g 10 % li ishqoriy metall xlorid tuzi elektroliz qilinganda 7,3 % li ishqor eritmasi olingan bo'lsa, qaysi metall tuzi elektroliz qilingan.

A) Na B) Li C) K D) Rb

26) Kumush nitratning 500 g 6,8 % li eritmasini elektroliz qilinganda anodda inert elektrodlar 22,4 l n.sh gaz ajraldi. Elektrolizdan so'ng eritmadagi moddaning massa ulushini % da aniqlang.

A) 4,7 B) 3,6  
C) 2,8 D) 1,9

27) X g 20% mis(II) sulfat eritmasidan 2F tok o'tkazildi. Natijada katodda 16,8 l (n.sh) gaz ajraldi. X ni aniqlang.

A) 200 B) 160 C) 100 D) 250

28) X g 34% kumush nitrat eritmasidan 3F tok o'tkazildi. Natijada katodda 28 l (n.sh) gaz ajraldi. X ni aniqlang.

A) 170 B) 200 C) 250 D) 340

29) 2M kaliy sulfat eritmasi elektroliz qilinganda 3M eritma hosil bo'ldi va 560 l

(n.sh) gaz anodda ajraldi. Dastlabki eritmaning hajmini (l) aniqlang?

2,7 B) 1,8 C) 1,2 D) 0,9

30) Molyal va foiz konsentratsiyasi nisbati 1:9,6 bo'lgan mis (II)-sulfat eritmasi elektroliz qilindi. Bunda 36,8 % li eritma hosil bo'ldi va eritmaning massasi 134 grammga kamaydi. Eritmadan qancha elektr toki(A•min) o'tganligini aniqlang?

A)8 B)77200 C)12864 D)2144

